

## **MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDOSHUV**

A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi  
Nasiba Bayturayeva

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda akmeologik yondoshuvga oid muammolar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** komponentlar, kategoriya, pedagogik tadqiqotlar, intellektual iste'dod, kreativlik.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются все проблемы, связанные с развитием творческой компетентности будущего учителя начальных классов.

**Ключевые слова:** компоненты, категория, педагогическое исследование, интеллектуальный талант, творчество.

Bugungi kunda «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!» degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rinnegallashi shart.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining «ijodiy kompetentligi» tushunchasi bugungi kunning dolzarb sanaladi. Shuning uchun ushbu tushunchani turli yondashuvlar nuqtai nazarlaridan ko'rib chiqamiz. Ta'lim amaliyotini tahlil qilish, psixologik-pedagogik ilmiy adabiyotlarni o'rganish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish muammosini hal qilishda akmeologik, tizimli, kompetentlilik, shaxsiy-faoliyat, kontekst, androgogik, yaxlitlik, tizim-faoliyat kabi zamonaviy yondashuvlardan foydalanish zarur degan xulosaga olib keladi. Bu zaruriyat esa ijodiy kompetentlikni rivojlantirishga mo'ljallangan mustaqil ta'lim faoliyatida akmeologik, tizim, kompetentlik, shaxsiy-faoliyat, kontekst, androgogik, yaxlitlik, tizim-faoliyat yondashuvlarini amalga oshirishning yaxlitligini nazarda tutadigan uchinchi pedagogik shartga olib keladi. Yondashuvlarning qo'llanilish chegaralarini aniqlash uchun ularning mohiyatiga aniqlik kiritamiz.

Boshidanoq, professionalizmni rivojlantirish vazifalarini hal qilishga imkon beruvchi yondashuv va usullarni ishlab chiqish akmeologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Ular umumiy atama – akmeologik yondashuv ostida birlashtirildi. «Akmeologiya - tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar kesishgan nuqtada paydo bo'lgan va inson rivojlanishining qonunlari va hodisalarini uning etuklik bosqichiga va ushbu rivojlanishda eng yuqori darajaga yetganda o'rganadigan fandir». Akmeologiya rivojlanayotgan insonni individ, mehnat sub'ekti va shaxs sifatida o'rganadi.

Bugungi kunda akmeologiya dastavval professionalizm haqidagi fandir. Akmeologik yondashuv akmeologik muammo va vazifalarni hal qilish imkonini beruvchi tamoyillar, usullar va metodlar majmui vazifasini bajaruvchi asosiy

umumlashtiruvchi tushunchadir. Akmeologik yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyatini umumiylashtirishda ko'rib chiqish imkonini beradi. Akmeologik yondashuv nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda asosiy tizim shakllantiruvchi omil - kasbiy madaniyatni rivojlantirishdan iborat.

Tizimli yondashuv metodologiyasi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligining shakllanishining o'zaro bog'liq elementlarning yaxlitlik majmuasitizimi; rivojlantirishni o'zaro faoliyat ko'rsatuvchi ob'ektlarning yig'indisi orqali; mohiyatlar va munosabatlar majmui orqali ko'rib chiqish imkonini beradi. Tizimli yondashuv jarayon va hodisalarning o'zaro munosabati va biri-biriga bog'langanlanligini (bir biri bilan shartlanganligini) aks ettiradi. Ushbu yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentligi tarkibiy komponentlarining integrativ sifatlari va tizim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Kompetentlik yondashuvi pedagogik adabiyotlarda ta'lim maqsadlarini aniqlash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil qilish va ta'lim natijalarini baholashning umumiylashtirishda majmui sifatida ifodalanadi. Kompetentlik yondashuvi nuqtai nazarlaridan o'qituvchining o'z tajribasi va hamkasblari tajribasidan foydalanish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quv jarayoni muammolarini mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta'lim faoliyati o'rganiladi. O'qituvchining ijodiy faoliyati mazmuni bilish va g'oyaviy ijodiy muammolarni hal qilishning didaktik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy tajribasi sifatida tadqiq qilinadi. Ta'lim jarayonini tashkil qilishdan maqsad ta'lim mazmunini tashkil etuvchi ijodiy muammolarni mustaqil hal etishda o'quvchilarining tajribasini rivojlantirishga sharoit yaratishdir. Kasbiy ta'limda kompetentlik yondashuvini amalga oshirishdan maqsad - kompetent mutaxassisni rivojlantirishdan iboratdir. Bizning nuqtai nazarimizcha, kompetentlik yondashuvi ta'lim va uning natijalarini baholashga an'anaviy bilimlar yondashuvining o'rmini bosmaydi, almashtirmaydi (uning o'rniga kelmaydi) yoki uni inkor ham qilmaydi, balki - aksincha uni chuqurlashtiradi, kengaytiradi va to'ldiradi. Kompetentli yondashuv bozor iqtisodiyotining sharoitlariga mos keladi, chunki u professional bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan birga, u ta'lim oluvchilarda zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan qobiliyatlar va tayyorliklarni (asosiy kompetentsiyalarning) ham shakallantirilishini taqozo etadi. Bu esa barcha ishlaydigan insonlar va jumladan o'qituvchilar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Maqsadlarga va ta'lim natijalarini baholashga yangicha qarashga (ularni yangicha tushunishga) yo'naltirilgan kompetentlikka asoslangan yondashuv ta'lim jarayonining boshqa tarkibiy qismlari - mazmun, pedagogik texnologiyalar, nazorat va baholash vositalariga o'z talablarini qo'yadi. Bu erda eng asosiysi, ta'lim oluvchini turli faoliyat turlariga kiritish (jalb qila olish) vaziyatlarini yaratadigan ta'lim texnologiyalarini loyihalash va amalga oshirishdan iborat.

Ushbu yondashuv nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsi mustaqil ta'lim faoliyatining sub'ekti hisoblanib, uning o'zi faoliyatda va boshqa kishilar bilan muloqotda shakllanib, bu faoliyatning xususiyatini belgilaydi.

SHaxsiy-faoliyat yondashuvi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil ta'lim faoliyatini uning milliy, jins-yosh, individual-psixologik va holat, mavqe (status) xususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish uchun eng o'rinni (aktual) hisoblanadi. SHaxsiy-faoliyat yondashuvi doirasida boshlang'ich sinf o'qituvchisining ta'lim oluvchilarining darslik, mustaqil ta'lim shakllari va usullarini tanlash erkinligini taqozo etadigan sub'ekt-sub'ekt o'rni yaqqol ko'zga tashlanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyati kasbiy faoliyat doirasida amalga oshirilishini hisobga olib, ijodiy tajriba orttirish (o'zlashtirish) mahorat darslari, seminarlar, ijodiy ustaxonalar va boshqa faol, kasbiy faoliyat natijasida amalga oshadi. Kontekst faoliyatda shaxsning faolligi; muammolik; ta'lim va tarbiyaning birligi; o'qituvchining kasbiy faoliyatining mazmuni va shart-sharoitlarini ketma-ket modellashtirish tamoyillari mujassamlashadi. Mustaqil ta'limda o'qituvchining yuqori darajadagi faoliyatning asosiy shakllariga: ochiq darslardan boshlab ijodiy seminargacha sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tishni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Andragogik yondashuvning asosiy tushunchalari - yoshi kattalarga ta'lim berish, o'z qobiliyat, salohiyat va imkoniyatlarini amalga oshirish va o'z-o'zini aktualizatsiya qilishdir. Andragogik yondashuvning kontseptual komponentining aniqligi ushbu yondashuvni tadqiqotimiz doirasida turli yosh toifalariga mansub bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatida ijodiy kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda ongli va maqsadga muvofiq qo'llash imkonini beradi. Andragogik tayyorlash - bu maqsadli, bosqichma-bosqich, simulyatsiya qilingan, andragogik tamoyillar va andragogik texnologiyalarga asoslangan tizimli ta'lim jarayoni bo'lib, uning maqsadi aniq (konkret) mutaxassislar guruhlarining ehtiyojlarini qondirish (amalga oshirish) uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratishdir va uning natijasida - andragogik faoliyatga tayyorlikning mavjudligidir. Ta'lim metodlarini tanlovini belgilovchi andragogik yondashuvning asosiy metodi «tajribani tahlil qilish usuli» bo'lib, u o'z navbatida ta'lim mazmuni va yoshi katta o'quvchilarini o'qitish tamoyillariga mos keladi. Yoshi kattalarga ta'lim berishning o'ziga xos usullariga qatoriga tashkiliy-faoliyat usullari, jumladan, modellashtirish, refleksiya va loyihalashtirish kiradi. Yoshi kattalar ta'limining shaxsga-qaratilgan ta'lim paradigmasing o'qitish usullarining odatiy (tipik) xususiyatlariga - muloqot boshqa odamni tushunish sifatida, refleksiya o'z-o'zini anglash va fikrlash o'z g'oya, fikrlarini ishlab chiqarish sifatida kiradi. Andragogik yondashuv o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro faoliyatini tashkil qilish usullariga interfaol (interaktiv) ta'lim usullari kiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova. “Kasbiyta'limpedagogikasi“. Metodikqo'llanma.-T.2005 y

2.U.I.Zokirova. Using the views of eastern thinkers in the spiritual and moral education of future theachers “Journal on Banking&InsuranceResearch”May 2020,Issue 3.

3. N. Bayturayeva. Developing the creative competence of future primary school teacher as a social problem. International Virtual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA <http://euroasiaconference.com> January 20th 2021.